

## O'ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA DIALEKTAL TA'MINOT YARATISH MASALALARI

**O'rinboyeva Ro'za Toliboyevna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti.  
E-mail: [orinboyevaroza@gmail.com](mailto:orinboyevaroza@gmail.com)

**Asqarov Ilhomjon Jamshid o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti.  
E-mail: [asqarovilhomjon21@gmail.com](mailto:asqarovilhomjon21@gmail.com)

**Annotatsiya:** Dialektal korpus yaratish masalasi soha vakillari oldidagi muhim vazifa hisoblanib, tilimizning barcha ko'rinishlarini sof holda saqlab qolish imkonini beradi. Muayyan hudud shevasining ma'lumotlar bazasini yaratish hamda uni algoritmlash mutaxassislardan zaruriy bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Ushbu maqola bu vazifaning dolzarbligini yoritib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** korpus, dialekt, transkripsiya, sheva, ta'minot, fonema.

**Abstract:** The issue of creating a dialectal corpus is considered an important task for the representatives of the field, which allows us to preserve all aspects of our language in its pure form. Creation of a database of a specific regional dialect and its algorithmization requires the necessary knowledge and skills of specialists. This article aims to clarify the relevance of this task.

**Keywords:** corpus, dialect, transcription, dialect, supply, phoneme.

**Аннотация:** Вопрос создания диалектного корпуса считается важной задачей для представителей отрасли, позволяющей сохранить все проявления нашего языка в чистом виде. Создание базы данных конкретного регионального диалекта и ее алгоритмизация требуют необходимых знаний и навыков специалистов. Данная статья призвана прояснить актуальность данной задачи.

**Ключевые слова:** корпус, диалект, транскрипция, диалект, снабжение, фонема.

### **Kirish.**

Dunyo miqyosida kompyuter lingvistikasi fani doirasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Ular orasida eng muhimlaridan biri hisoblangan korpusshunoslik o'z mutaxassislaridan amaliy natijalarni kutmoqda. Ko'plab sohalar uchun boy manba bo'la oladigan til korpuslarini yaratish va ularni takomillashtirish bugungi ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'rganuvchilarga til o'qitishning yangi uslub va tamoyillarini tatbiq etish, jamiyatning barcha qatlamlari uchun til o'rganishni osonlashtirishda samarali vositalardan biridir.

O'zbek tili korpusining yaratilishi til imkoniyatlarini umumlashtirish va ularni foydalanuvchilarga namoyon etishdagi asosiy omil vazifasini o'tadi. Bu, o'z navbatida, foydalanuvchilarga o'zbek tilidagi sheva so'zlar bilan tanishish, ularning muloqot jarayonidagi semantik ma'nolarini aniqlash hamda geografik jihatdan tarqalish hududlarini o'rganish

imkoniyatini beradi [Abdurakhmonova, N. 2021, 2022]. Korpusga yuklanadigan audio materiallar orqali foydalanuvchi muayyan shevaga oid soʻzning talaffuzi va uning qoʻllanish doirasi bilan tanishadi. Oʻzbek shevalarining oʻziga xos xususiyatlari bir necha maqolalarda, tadqiqot ishlarida yoritib berilgan, ammo ular korpus sifatida shakllantirilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolada oʻzbek tili korpusi uchun dialektal taʼminot yaratish masalalari xususida soʻz yuritiladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar.**

Dialektal korpus yaratish boʻyicha jahon miqyosida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilgan. Hozirda olimlar ularning funksiyalarini yanada takomillashtirish ustida ish olib borishmoqda. Koʻpgina tillardagi dialektal korpuslar foydalanuvchilarga havola etilgan. Ularning yaratilishi haqida turli xil tezis, maqola, dissertatsiya ishlari orqali boxabar boʻlishimiz mumkin. Xususan, rus tili dialektal korpusi haqida A.V.Letuchiy [Летучий А.В., 2003-2005], I.V.Kachinskaya, D.V.Sichinava [Качинская И.В., Сичинава Д.В., 2015], tatar tili dialektal korpusi boʻyicha Liliya Yansaeva [Лилия Я.А., 2008], ingliz tili dialektal korpusi boʻyicha Lieselotte Anderwald, Susanne Wagner [Anderwald L., Wagner S., 2007] kabilar atroflicha fikr yuritib oʻtgan.

Lieselotte Anderwald va Susanne Wagner “Corpus linguistics and dialectology” [Anderwald L., Wagner S.] nomli maqolasida hozirda ishlayotgan dialektal korpuslarni tahlilga tortib, ulardagi materiallarni bir necha toifalarga ajratadi. Uning fikricha, dialektal taʼminot uchun koʻproq sotsiolingvistik materiallar toʻplanadi. Muallif ularning eng yaxshisi sifatida SED yozuvlarini koʻrsatadi. O.Y. Kryuchkova, V.E. Goldinlar dialektal matnlarni ilmiy tahlil qilish uchun nafaqat leksik, grammatik, balki fonetik hodisalarni ham imkon qadar toʻliq aks ettirishni taʼkidlaydi [Kryuchkova O.Y., Goldin V.E., 2011]. Bunda birinchi maqsad orfografik yozishga yaqin boʻlgan transkripsiyaga mos keladi.

Oʻzbek tili uchun dialektal korpus yaratishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim:

1. Dialektal materiallarni toʻplash: har bir dialektning oʻziga xos xususiyatlari boʻlib, ularni oʻzida aks ettirgan matnlar toʻplanadi.
2. Analiz qilish: toʻplangan materiallar tahlil qilinadi, umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi.
3. Taʼminot yaratish: tahlil natijalariga asosan har bir dialektning xususiyatlari soʻzlar, iboralar, frazalar va shakllar koʻrinishida boʻladi.
4. Sinovdan oʻtkazish: yaratilgan dialektal taʼminot sinovdan oʻtkaziladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi.
5. Taʼminotni integratsiyalash: tayyor boʻlgan taʼminot platforma, dastur yoki internet saytlariga yuklanadi.

Oʻzbek dialektal korpusini yaratish doirasida ushbu vazifalarning qay tartibda bajarilishi N.Z.Abduraxmonova [Abduraxmonova N., 2001], M.A.Xolova [Xolova M., 2020], Z.X.Rustamova [Rustamova Z., 2022] singari olimlarning ishlarida batafsil yoritib berilgan. Ular oʻzbek tili dialektal korpusining mohiyati, xususiyatlari haqida bayon etishgan. Dialektolog olimimiz Samixon Ashirboyev [Ashirboyev S., 2021] oʻzining darslik qoʻllanmasida shevalarni qanday tasniflash, ularni transkripsiyada qanday ifodalash yoʻl-yoʻriqlarini batafsil yoritib bergan. Qolaversa, N.Murodova [Murodova N., 2000], M.Saidova [Saidova M., 1995], M.Q.Begaliyev [Begaliyev M.Q., 2007], .Z.Y.Ibragimova [Ibragimova Z.Y., 2009]lar shevalarni hududiy kesimda oʻrganib, ularni oʻz ishlarida nazariy jihatdan aks ettirganlar.

### **Dialektal ta'minot yaratishning amaliy ahamiyati.**

Dialektal ta'minot yaratish korpusshunoslikda keng imkoniyatlarni ochib beradi. Uning amaliy ahamiyati bir nechta muammolarga yechim topa olishi bilan belgilanadi:

1. Sayt yoki dastur orqali foydalanuvchilarni ularning o'z lahja, dialekti yangiliklaridan boxabar qiladi;
2. Yaratilgan dialektal ta'minot korpusga yuklanib keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
3. Dialektal materiallar va uning audiomatnlaridan o'zbek nutq sintezatori uchun manba sifatida foydalanish mumkin;
4. Foydalanuvchilar (asosan, dialektologlar) ga dilaektal materiallarni transkripsiyasi bilan birga taqdim etadi;
5. Aloqador bo'lgan so'zlarni va iboralarini aniqlash: dialektal ta'minot shevalar va lahjalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni taqqoslash imkoniyatini beradi;
6. Regional foydalanuvchilarga qaratilgan mahsulotlar va xizmatlar: agar kompaniya yoki tashkilot biron bir hududga xizmat ko'rsatmoqchi bo'lsa, dialektal ta'minot bu hududning dialektidagi so'z va ifodalarni tushunish hamda foydalanuvchilarni qiziqtirishga yordam beradi.

Dialektologiyada olib boriladigan har qanday amaliy tadqiqot ishi dialektal ta'minotni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, masalaning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

### **Xulosa.**

O'zbek tili shevalari nazariy jihatdan yetarlicha o'rganilgan. Ularning fonetik xususiyatlari muayyan qonun-qoidalarga tushirilgan. Amaliy jihatdan dialektal manbalarni bir korpus ostida jamlash soha doirasidagi navbatdagi yutuq hisoblanadi. Dialektal ta'minot yaratish bu boradagi dastlabki bosqich bo'lib, kompyuter lingvistlari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Летучий А.Б. Корпус диалектных текстов: задачи и проблемы // Национальный корпус русского языка: 2003-2005. М.: Индрик, 2005.
2. Качинская И.Б., Сичинава Д.В. Диалектный подкорпус сегодня// Тр. ин-та русского языка им. В.В.Виноградова РАН. 2015.
3. Лилия Я.А. Диалектный синтаксис татарского языка. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Казань, 2008.
4. Anderwald L., Wagner S. The Freiburg English Dialect Corpus: Applying Corpus-Linguistic Research Tools to the Analysis of Dialect Data. Beal, J.C., Corrigan, K.P., Moisl, H.L. (eds) Creating and Digitizing Language Corpora. Palgrave Macmillan, London. [https://doi.org/10.1057/9780230223936\\_3](https://doi.org/10.1057/9780230223936_3)
5. Abduraxmonova N.Z. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Monografiya. GlobeEdit, 2021.
6. Abdurakhmonova, N., Tuliyeu, U., Ismailov, A., & Abduvahobo, G. (2022). Uzbek electronic corpus as a tool for linguistic analysis. In *Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022* (pp. 231-240).
7. Abduraxmonova, N. Z. Q., & Urazaliyeva, M. Y. (2022). O 'zbek tili elektron korpusida (<http://uzbekcorpus.uz/>) og 'zaki matnlar korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 644-650.

8. Mengliev, D., Barakhnin, V., & Abdurakhmonova, N. (2021). Development of intellectual web system for morph analyzing of uzbek words. *Applied Sciences*, 11(19), 9117.
9. Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In *of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)*.
10. Agostini, A., Usmanov, T., Khamdamov, U., Abdurakhmonova, N., & Mamasaidov, M. (2021, January). Uzwordnet: A lexical-semantic database for the uzbek language. In *Proceedings of the 11th Global Wordnet conference* (pp. 8-19).
11. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi (darslik). T.: Nodirabegim, 2021.